

O‘ZBEKISTON FAUNASIDA UCHRAYDIGAN SUDRALIB YURUVCHI HAYVONLARNING HAYOTI VA AHAMIYATI

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

Qosimjonova Xumoraxon Azizbek qizi

Annotatsiya. Bu tezisdagi O'zbekistonda uchraydigan sudralib yuruvchi hayvonlar (Kaltakesaklar) ning yashash tarzi, tarqalishi hamda ularning biologiyasi to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

Abstract. This thesis provides information on the way of life, distribution and biology of reptiles (lizards) found in Uzbekistan.

Абстрактный. В диссертации представлены сведения об образе жизни, распространении и биологии пресмыкающихся (ящериц), обитающих в Узбекистане.

Kalit so'zlar. Yashash joyi, tuzilishi, Maqomi, tarqalishi.

Kaltakesaklar, sudralib yuruvchilar sinfining kenja turkumi. 2000 tacha turi bor. Gekkonsimonlar, tangacha oyoqlilar, agamalar, iguanalar, urchuqsimonlar, zahartishlilar, echkemarsimonlar, amfisbenalar, asl kaltakesaklar, ssinksimonlar kabi oilalarga bo'linadi. K.ning tana shakli turli-tuman. Besh barmoqli oyoqlilari ham, oyoqsizlari ham uchraydi. Oyoqsiz K.da to'sh suyagi va oyok kamari saqlangan. K. keng tarqalgan. O'zbekistonda ularning 38 turi, fotmanchiq, echkemar, toshkaltakesak, kunkarg'ar, sariq ilon, bot-bot, qizilquloq va h.k. bor. Asl kaltakesaklar oilasi mazkur turkum uchun tipik vakili. Gavgdasi silindr shaklida; bo'yni yaqqol ajralib turadi; dumi uzun va uziluvchi; oyoqlari yaxshi rivojlangan; boshi va qorni qalqonlar, gavgdasi tangachalar bilan qoplangan. Dumidagi tangachalar halqa shaklida. Quloq teshigi bor. Afrika, Osiyo va Yevropaning serquyosh, issiq mintaqalarida yashaydi. O'zbekistonda yozda kun

qiziganda uyalariga (salqin joylarda) kirib oladi. Qishda (noyab.dan martgacha) karaxt bo'ladi. Tuxum qo'yadi; tuxumdan tirik tug'uvchi turlari ham bor. Hasharot va b. jonivorlar bilan oziqlanib, ko'p foyda yetkazadi. Yugurdak kaltakesak, tirik tug'ar kaltakesak, O'zbekistonda keng tarqalgan ildam kaltakesakcha va hokazolar shu oilaga kiradi. Kaltakesaklargavdasining shakli turli-tuman, asosan cho'zinchoq, uzun harakatchan ' dumi, yaxshi rivojlangan bo'yin, qisqa va besh barmoqli oyoqlari bor. Ayrim turlarining oyoqlari yo'qolib ketgan, lekin oyoqsiz kaltakesaklarda ilonlardagiga qarshi o'laroq to'sh suyagi, oyoq kamari, harakatchan ko'z qovoqlari va nog'ora pardasi bo'ladi. Gavdasining uzunligi 3,5 sm dan 4 m gacha va og'irligi 150 kg gacha boradi. Yozda ko'pchilik tangachalilar qumli cho'llarda isib ketishdan aochib. uyalariga yashirinadi yoki daraxt shoxlariga chiqib oladi D.N. Kashkarovning kuzatishlariga qaraganda O'rta Osiyoning qumli cho'llarida yozda harorat yerdan 2 m balandlikda (daraxt shoxlarida) yerda soya joydaEiga nisbatan 10°C past, quyosh nuri lu sh ib turgan joydagiga nisbatan esa 28°C past bo'lishi aniqlangan. Shuningdek. sudralib yuruvchilar toqqa ko tanlgan sari, ularning soni sezilarli darajada kamayib borishi ham kuzatil- »an. O'rta Osiyoda sudralib yuruvchilaming eng baland tarqalish chegarasi dengiz sathidan 5000 m balandlik hisoblanadi.

O'zbekistonda uchraydigan kaltakesaklarning tarqalishi, yashash tarzi va biologiyasi.

Asl kaltakesaklar mayda va o'rtacha kattalikda bo'ladi, dumi uzun va uziluvchan, son teshiklari bor. Aksariyat turlari cho'l va dashtlarda hamda tog' etaklarida yashaydi. Rossiyaning salqin o'rmonlarida tiriktug'ar kaltakesak, o'rta mintaqada, jumladan,O 'zbekistonning cho'lmintaqalarida targ'il chiziqli rang-barang kaltakesakchalar, togli va shimoli-sharqiy hududlarda ildam kaltakesak uchraydi. Ildam kaltakesak (*Eremias velox*) — chin kaltakesaklar oilasining turi. Eron, shim.-g'arbiy Xitoy, Kavkaz, Rossiyaning jan. hamda O'rta Osiyoda tarqalgan. O'zbekistonda I.k. ni sho'rxok taqirlar, qumli cho'llar, to'qay,

chakalakzor, ariq va hovuzlar bo'yida uchratish mumkin. Tanasining uz. 8,5 sm gacha, dumi tanasidan 1,4—2 marta uzun. Gavdasining usti kulrang, to'q jigarrang yoki qoramtir, orqa tomonida tana bo'ylab ketgan bir necha qator qora xollari bor. Qorin tomoni oq, dumining osti qizil. Har xil hasharotlar bilan oziqlanadi. Urg'ochisi may — iyulda, hatto avg. boshlarigacha 2—3 marta 3—5 tadan tuxum qo'yib ko'payadi.

T /r	Tur nomi	Maqo mi	Tarqalish i	Yashash joylari
	Qizilquloq kaltakesak- Phrynocephalus mystaceus (Pallas, 1776)	Odati y tur.	Qizilqum, Xorazm vohasi, Qarshi cho'li, Zarafshon daryosining quyi oqimi, Surxondaryo qumliklarida uchraydi.	Cho'llarning kuchsiz mustahkamlangan, sochiluvchan, tepalikli qumlik qismida kuzatiladi.
	Turkiston agamasi – Laudakia lehmanni (Nikolsky, 1896)	Odati y tur	Oloy, Zarafshon, Turkiston, Hisor, Ko'hitang, Bobotog, Nurota tog'larida uchraydi. Yashash joylari: tog'larning qoyalari, kuzatiladi.	Tog' dalalarining qoyalari, jarliklari, g'orlar, tog'oldi va tekislik; arda turli qurilishlar, devvorn ing soya tushadigan qismida, tepalik etaklarida kuzatiladi.
			Ustyurt, Qoraqalpog'isto	Adirlarda ariqdan chiqarib

	Dasht agamasi – Trapelus sanguinolentus (Pallas 1814)	Ko'p sonli tur	n, Xorazm vohasi, Qizilqum, Farg'ona vodiysi, Qarshi cho'li, Mirzacho'l, Zarafshon , vodiylarida uchraydi	tashlangan tuproq uyumlari, paxta, beda dalalari atrofi, yarim mustahkamlangan vaqumli do'ngliklar, kuzatiladi.
	Taroqbarmo qli gekkon - Crossobamon eversmanni (Wiegmann,1834)	Kam o'rganilgan tur.	Ustyurt, Qizilqum, Zarafshon, Surxondaryo vohasi, Farg'ona vodiysi, Xiva vohasi, Mirzacho'l, Qarshi cho'llarida uchraydi.	Mustahkaml angan va yarim mustahkamlangan qumlarining past- balandli va do'ngli hududlarida kuzatiladi.
	Kaspiy gekkoni - Cyrtopodion caspius (Eichwald, 1831)	Kam sonli va kam o'rganilgan tur.	Qoraqalpog'isto n, shu jumladan Ustyurt, Orol bo'yi, Qizilqum, Xorazm vohasi, Zarafshon daryosining quyi oqimi, Surxondaryo vodiysida	Tekislik va tog'oldi hududlarning toshli qismida, turli qurilishlar, shu jumladan eski binolarda kuzatiladi.

			<p>uchraydi.</p> <p>Farg'ona vodiysida arealdan ajralib qolgan poplatsiyasi topilgan.</p>	
	<p>Turkiston gekkoni - Cyrtopodion fedtschenkoi (strauch,1887)</p>	<p>Keng tarqalgan va ko'p sonli tur.</p>	<p>Qizilqum, Mirzacho'l va Qarshi cho'li, Turkiston, Zarafshon, Bobotog', Ko'hitang, Nurota tog'lari, Zarafshon vodiysi, Farg'ona, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida uchraydi.</p>	<p>Tog' dalalarining qoyalari, jarliklari,g'orlar, tog'oldi va tekislikl;arda turli qurilishlar,devvorn ing soya tushadigan qismida, tepalik etaklaridagi eski quduqlar, suv o'yib ketgan tuproq chuqurliklarida kuzatiladi.</p>
	<p>Kulrang gekkon – Mediodactylus russowi (Strauch,1887)</p>	<p>Keng tarqalgan, ko'p sonli tur.</p>	<p>Orol dengizi bo'ylari, Ustyurt,Qizilqum, Xorazm vohasi, Farg'ona vodiysi, Samarqand, Toshkent, Jizzax, Sirdaryo</p>	<p>Aholi punktlari, jarliklar, qurilish devorlari yoriqlari, mayda toshlar ostida kuzatiladi.</p>

			viloyatlari, Chotqol, Turkiston to'glarida uchraydi.	
	To'r kaltakesakcha- Eremias grammica (Lichtenstein,182 3)	Keng tarqalgan odatiy tur.	Amudaryo quyi oqimi, Xorazm vohasi, Qizilqum, Qarshi cho'li, Zarafshon vodiysi, Surxondaryo viloyati qumlarida uchraydi.	Cho'llarning yakka o'simlikli qisman mustahkamlangan va sochiluvchan qumliklar qisman kuzatiladi
	O'rtacha kaltakesakcha- Eremias intermedia (Strauch,1876)	Odati y tur.	Ustyurt, Amudaryo quyi oqimi, qizilqum, Qarshi cho'li, Surxondaryo vohasida uchraydi.	Kam o'simlikli mustahkamlangan qumli, mayda toshli qum tuproqlarda kuzatiladi.
0	Chiziqli kaltakesakcha - Eremias lineolata (Nikolsky, 1896)	Lokal hududlarda ko'p sonli tur.	Ustyurt, Amudaryo quyi oqimi, Qizilqum, Qarshi cho'li, Buxoro vohasi, Surxondaryo	Asosan buta va efemerli o'simliklar joylashgan mustahkamlangan qumliklar, kamdan-kam sho'r tuproqli va

			viloyati janubida uchraydi.	sertuproqli erlarda kuzatiladi.
1	Tez kaltakesakcha - Eremias velox (Pallas, 1771)	Ko'p sonli va keng tarqalgan tur.	Ustyurt, Orol dengizi, Nukus va uning atroflari, Xorazm vohasi, Qizilqum, Zarafshon vodiysi, Mirzacho'l, Farg'ona vodiysi, Toshkent vohasi, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida uchraydi.	Adirlar, ko'chib yuruvchi qumlar, o'zlashtirilgan erlar, paxta va boshqa ekin maydonlaricchekkalari va to'qayzorlarda kuzatiladi.
2	Bo'z echkamar-Varanus griseus (Daudin, 1803)	Zaif, qisqarib borayotgan, mozaik tarqalgan tur toifasi bilan O'zbekiston Respublikasida "Qizil	Janubiy Orolbo'yi, Qizilqum, Qarshi cho'li, Sirdaryoning o'rta oqimi, Farg'ona vodiysi tekisliklarida uchraydi.	Cho'lining qumli va tuproqli erlari, tog'larning pastki qism tekisliklarida va daryo vohalarida kuzatiladi.

		kitob”ga kiritilgan.		
--	--	-------------------------	--	--

XULOSA

O‘zbekiston faunasida sudralib yuruvchilar sinfining 58 turi uchraydi. Vakillari tog‘ va tog‘oldi, dasht, cho‘l, to‘qay, o‘zlashtirilgan hududlar hamda aholi punktlarida qayd etiladi. Kaltakesaklar yilning sovuq davrida qishki uyquga ketadi. Bahor, yoz, kuz, oylarida hayot kechiradi. Ularning terisining shox bilan qoplanishi va teri orqali nafas olish funksiyasining yo‘qolishi, ularga nomi kam erlarga ham yashashga imkon beradi. Shox bilan qoplangan teri reptiliyalarga sho‘r erlar bilan dengiz suvlariga , ya’ni suvda va quruqda yashovchilar mutlaqo yasholmaydigan makonlarga kirish uchun yo‘l ochdi. Shu bilan birga , o‘pkaning ichki tuzilishi murakkablashib va xalqum bilan nafas olish o‘rniga ko‘krak qafasining harakati orqali nafas olish qaror topib, nafas olish funksiyasi zo‘raydi. Kaltakesaklar qutblar oldidagi erlar hisobga olinmaganda, er yuzining barcha iqlimiy viloyatlariga tarqalib, juda turli-tuman hayot formalari hosil qildilar. Ularning orasida quruqda, er ostida, suvda va daraxtda yashovchi formalar bor.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Shernazarov E.,Jumanov M. O‘zbekiston suvda hamda qururlikda yashovchilariari va sudralib yuruvchilari. . O`quv qo`lanma “Xorazim nashriyoti “ Urganch .2015.102 b.
2. Назаров И.Қ., Аллаёров И.Ш. Бухоро географияси Бухоро, 1994 йил,
3. Богданов О.П. Ўзбекистон ҳайвонлари (умуртқалилар) Тошкент, “Ўқитувчи.” 1983.
4. Лаханов Ж.Л. “Ўзбекистоннинг умуртқали ҳайвонлари аниқлагичи” Тошкент “ФАН” 1987 .
5. Жизнь животных. 1-6 М. Просвещение. 1981-1986.